

**BOLALIK MANZARALARIDA FOLKLOR NAFASLAR  
(OYBEKNING “BOLALIK XOTIRALARIM” QISSASI MISOLIDA)**

**Baxtiyorova Zarnigor**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti univristeti 1-kurs magistranti*

**MAQOLA MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 20.12.2025*

*Revised: 21.12.2025*

*Accepted: 22.12.2025*

*Ushbu maqolada folklorizm va u haqida  
qisqacha ma'lumot, folklorning badiiy asarga  
ta'siri, undagi to'qimalilik, xalq og'zaki  
ijodining ishlatilish o'rinlari va insonlarga  
ta'siri haqida o'rganamiz*

**KALIT SO'ZLAR:**

*xalq og'zaki ijodi, qahramon  
tilidan folklorlar, asardagi  
miflarning badiiy o'rni,  
maqollar va matallar, marosim  
folklori*

Badiiy asarda folklorizm- bu xalq og'zaki ijodidagi an'analarni, motivlarni, to'qima timsol yoki miflarni badiiy asarga ko'chirish jarayonidir. Folklorda xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlar zahirida xalqning dunyoqarashi, mifologik tushunchalari va diniy e'tiqod bilan bog'liq fikrlari o'z aksini topadi.

Adabiytoshunoslik nazari bilan qaraganda, folklor elementlarining yozma badiiy adabiyotga singdirilishi ikki asosiy maqsadni bajaradi: birinchidan badiiy asarlarda milliy ruh va obrazlilikni kuchaytiradi; ikkinchidan xalqning qadimiy an'alarini va urf-odatlarini kelajak avlodga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Badiiyatda folklorizmning ko'plab namunalari mavjud, masalan:

1. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” , “Lison ut-tayr” asarlarida xalqona timsollar, rivoyat va tasavvufiy xalq qarashlari mavjud.
2. Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” , “ Mehrobdan chayon” kitoblari xalq urf odatlari, maqol, matallar hamda nikoh va to'y marosimlari bog'liq folklorlar bor.
3. Hamid Olimjonning “Semurg”, “ Oygul bilan Baxtiyor” dostonlarida ertak syujeti, afsonaviy qush va obrazlar, xalq fantaziyasi mavjud.
4. G'afur G'ulomning “Shum bola” qissasida xalq latifalari, hajviy folklor namunalari keltirilgan.

5. Oybekning “Navoiy” va “Qutluq qon” romani va “Bolalik xotiralarim” qissasida maqol va matallar, turli xil mifologik qarashlar, rivoyatlar asosida xarakter yaratish na'munalarini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Bahodir Sarimsoqovning tasnifiga ko'ra asarlarda folklorizm quydagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Oddiy folklorizm- maqol, maqtal, xalq iboralari.
2. Murakkab folklorizm- doston va afsona syujetlari.
3. Stilizatsiyalashgan folklorizm- folklor ruhini saqlagan yangi badiiy shakl.

Ushbu maqolada tahlil qilayotgan asarimiz Oybekning “Bolalik xotiralarim” qissasida yuqorida sanalgan uchta turning deyarli barchasiga na'munalar keltirilgan.

Oybekning hayoti va oilasining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak hech qanday ziyoli oilada emas, aksincha, oddiy bo'zchi oilasida dunyoga kelgan. Ammo asarida qo'llagan folklorizm na'munalarining asosiysi qismini “bobom buni aytardi, buvim bunaqa maqollarni ko'p ishlatardi”,- deb misollar keltirgan. Bundan ko'rinib turadiki, ijodkor xalq og'zaki ijodini yaxshi bilgan insonlar orasida ulg'aygan. Bizga ma'lumki, “Bolalik xotiralarim” qissasi 1963-yilda yozilgan bo'lib, unda Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning ayni o'z hayoti aks etgan. Adib ushbu asarida folklor na'munalari orqali xalqning hayoti, turmush tarzi, qiyinchiliklarini aks ettirgan.

Qorda qarg'a cho'mildi,

Ikki ko'zi yumildi,

Buvinning qo'lidagi

Kosov bilan quvildi.

Minishga ulov bo'lsa,

Qish keldi, olov bo'lsa!

Qor qalin, sovuq qattiq!

Sergo'sht palov bo'lsa.<sup>30</sup>

Ijodkor asarning boshlarida ushbu parchani yozarkan, qishning sovuq kunlarida bobomning pinjiga kirib doim shu qo'shiqni aytardim deydi. Ushbu jumalarda biroz bo'lsada, o'sha davr hayotini aks ettirgan. Ko'pchilik piyoda yurishi, ulov deganda moshinalarni emas, otlarni nazarda tutgan, albatta. Ya'niki ot olish bir orzu edi degan ma'nolar kelib chiqqadi. Shu bilan birga so'nggi ikki qatorda qishning qattiq kelishini ifodalagan. Qissaning ko'p joylarida xalqning moddiy ahvoli og'irligi bilan bog'liq jumalarni ko'rishimiz mumkin. Go'shtli palov yeyish orzuligi yanada o'sha muhitni ochib bera olgan.

-Yana moshxo'rdami? Chakkaga tegdi-ku!- deyman onamga zarda bilan.

-Qandoq qilay, bugun palov qilsam, bir hafta qozon qaynamaydi. Dadang o'lgurning beparvoligidan kuyib ketaman-deydi onam astagina.<sup>31</sup>

<sup>30</sup> Bolalik xotiralarim: Qissa. Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.-43 b.

Ushbu jumla ham yuqorida keltirilgan she'ning ma'nosini yanada ochib bergan. Ijodkor asarda buvisi haqida ko'p o'rinlarda yozgan. Hattoki, bir o'rinda "buvim –maqol va matallar koni" deb aytib o'tgan. Kelinining o'g'lidan norozi bo'lib javragan holatlarida "Yaxshi xotin suv kelsa-simiradi, tosh kelsa-kemiradi" matalini ishlatar edi. Bilamizki, matal xalq og'zaki ijodining na'munasi bo'lib, u obrazli birikma yoki ibratli gapdir.

Qissada hayotiy-maishiy ruhdagi folklorlar bilan bir qatorda, xalqning ishonchlari va turli xil miqlar bilan bog'liq bo'lgan xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lgan jummalarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan: yosh Muso shunday deydi: "Juda qattiq shamollab hastalanib qoldim, so'ng O'rin buvi kelib boshimdan xokandozni o'girib bu duoni ayta boshladi:

Isiriqjon, isiriq  
Sizni bizga berdilar.  
Bizga kelgan baloga  
Sizni qalqon qildilar.

Ushbu jumladan kelib chiqib shuni ayta olish mumkin, insonlar o'zlari yaratgan turli xil qarashlar orqali isiriqning dardga da'vo bo'lishi haqida turli xil she'rlar yaratishgan va bunga ishonishgan. Bulardan tashqari asarda oylar bilan bog'liq miqlar ham uchraydi: "Safar oyi- falokat oyi, g'am-g'ussa oyi. Shu oyda quruqchilik, sel, turli ofatlar, yurtida g'alayon bo'larmish. Odamlar safar oyida to'ylarni to'xtadi" deb xotinlar buning rasmi kuchukni astoydil urib, kaltaklab olovdan sakratish kerak,-deb ishonishgan. Kuchukni urib azoblashgach itni qo'yib yuborib "Safar qochdi, safar qochdi" deya quvonishgan.

Folklor janrda eng ko'p tarqalgan turlardan biri marosim folklorlaridir. "Bolalik xotiralarim" qissasida ham marosim folklorining to'y marosimlarida aytiladigan xalq og'zaki ijodidan bir qancha na'munalar keltirilgan. To'y marosim folklorlarining ohangi juda yengil va so'zlari ma'noli bo'lgani bois uni kundalik hayotda ham insonlar kayfiyat ko'tarish maqsadida aytishgan. Musoning bobosi eng sevib shu she'rni ko'p aytar edi:

Tizza bo'yi qor ko'cha,  
Bu kecha oydin kecha.  
o'shni qizga to'y keldi,  
Dumbasi katta qo'y keldi.  
O'choqlar ham o'yildi,  
Kelgan qo'ylar so'yildi.  
Oshni yog'siz, demanglar,  
Bo'rdoqi qo'y so'yilgan.  
Uyni sovuq demanglar,  
O't qalatib qo'yilgan.

<sup>31</sup> Bolalik xotiralarim: qissa. Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. - 218 b.

Kampirlar qoldi ayvonda,  
 Betin sovuq olmasin.  
 Choy qaynating qumg'onda,  
 Tag'in shovqin solmasin.  
 Qizlar marjon taqishdi,  
 O'rtaq o't yoqishdi.  
 Qizlar boshladi o'yinni,  
 Qizitdilar to'yini.  
 Yor-yor o'yin boshlandi,  
 Qancha ko'zlar yoshlandi.

Ijodkor bolaligida qozoq cho'llariga borgani va u yerdagi to'y-marosimlarda ishtirok etganini asarni o'qish davomida guvoh bo'lamiz va qozoq xalqining to'ylarida kelin va kuyovning bir-biriga ayatadigan ulan na'munalaridan ham keltirad.

Kuyov:

Qasi qara qag'azding qalaminday,  
 Alemga<sup>32</sup> bitemeken qiz-da senday.  
 Qilpti quday istiq juldizingdi.  
 Ko'rmedim bul duniede qizdi senday.  
 Aq juzingdek jiltildagan qara ko'zing,  
 Arziydi ming tildaga aytgan so'zing.  
 Ko'nglimdi sag'an aytpay kimga aytam,  
 Arziysin talay qizg'a jalg'iz o'zing.

Ushbu jumalardan qozoq xalqi ham ayollarni ulug'lashini, o'z yorini suyishini, hattoki, aytgan so'zlaring ming tilloga teng deb e'zozlashlarini bilib olishimiz mumkin. Asarda yana qozoq xalq og'zaki ijodidan hayotiy-maishiy ruhdagi xalq og'zaki ijodidan na'munalar keltirilgan. Ular boylar zulmidan shikoyat qilish orqali xalq dardini kuylar edi, -deydi Muso.

Jabini<sup>33</sup> javg'a minbe jali jo'q deb,  
 Jamanning qizin alma mali ko'p deb,  
 Jetpeydi jaman adam qadringga,  
 Jaqsidan quri qalma mali jo'q deb.

Yomonning moliga uchib qizini olsang, umringni kuydirasan, yomon odamlar seni qadringga yetmaydi, yaxshi odamlardan boyligi yo'q deya quruq qolma jumalari orqali qozoq xalqi folklorida ham umuminsoniy fikrlarni aytib o'tgan.

Asarda to'y folklorlarining turli na'munalarini ko'rishimiz mumkin. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek ya'ni bosh qahramon opasi Karomatni uydan ketar chog'i qarindoshlar birisi yig'lab, birisi kulib "Yor-Yor" aytib kuzatishdi –deydi.

<sup>32</sup> Alemge-olamga, butun jahonga.

<sup>33</sup> Yosh toy

Otang qilgan bu eshik  
Yopilmaydi, yor-yor  
Qizim tengi dunyoda  
Topilmaydi, yor-yor.

Folklor asarlarning zahirida, asosan, hayotiy haqiqatlar yotadi. Yor-yorning ma'nosiga qaraydigan bo'lsak, qiz bola boshqa uyga sohiba bo'lgandam keyin ham har qanday vaziyatda u uchun ota uyining eshigi ochiq. Aslida, bu-hayotning eng oliy haqiqati mening nazarimda.

Asarda matallardan umumli foydalanilgan: "Darding bo'lsa bo'lsin, qarzing bo'lmasin", musulmon kishining qarzi bor holatda biror ish qilishi joiz emasligi shu jumla orali ochib berilgan asarda. "Yurgan yo'lda topadi, o'tirgan qayda topadi?" ya'ni har doim harakatda bo'lish foyda keltiradi demoqchi bu matal orali ijodkor.

Oybekning "Bolalik xotiralarim" qissasi ijodkorning biografik asari hisoblanadi, unda to yoshligidan ulg'aygan davrigacha bo'lgan hayot yo'lini yoritgan. Asarda ko'plab folklor na'mular keltirgan bo'lsa-da, har biri o'rinli o'sib borayotgan voqea bilan chambarchs bog'liq. Xalq og'zaki ijodidan berilgan na'munalar kitobxonni yana-da, o'ziga jalb qiladi. Ulardagi mazmun hayotiy ekanligi bilan alohida badiiy zavq bag'ishlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – Toshkent: Fan.
2. M. Yunusov. Folklor va yozma adabiyot. Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. Bolalik xotiralarim:Qissa-Toshkent: Yoshlar matbuoti,2023.
4. Sarimsoqov B., O'zbek folklorining janrlar sostavi / O'zbek folklori ocherklari. 1-tom. – T.: Fan, 1988.
5. O. Madayev, T.Sobitov. Xalq og'zaki poetik ijodi.Toshkent:Sharq,2010.